

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 338 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "EI-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....16 Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	16
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash20 Shakarov Zafar Gafforovich	20
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему24 С.С. Исмаилов	24
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili32 Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	32
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....37 Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	37
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari41 Sh.B. Donayev	41
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir45 Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	45
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....49 Idrisov Alisher Otajonovich	49
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....53 Sultanov Maxmud Axmedovich	53
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....57 Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	57
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики61 Вохидова Мехри Хасановна	61
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран69 Буранова Лола Вахобовна	69
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....78 Babamatov Tolib Hakimovich	78
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari83 S.A.Karabayev	83
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari90 Yusupov Aziz Shuxratovich	90
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi95 Gulbayeva Feruza Islamovna	95
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri..... 102 Sherov Alisher Bakberganovich	102
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili 107 Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	107
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 111 Umarova Malika Baxtiyarovna	111
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций 116 Умида Юлдашева	116
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях..... 120 Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	120



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxonalar va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocho ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalarida ishlab chiqarishda innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	



IJTIMOIIY-IQTISODIY ADOLAT – BARQAROR RIVOJLANISH KAFOLATI

Alimov Nasimjon Hoshimovich

O'zLiDeP Amaliy loyihalar va
siyosiy ta'lim markazi rahbari,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy adolat hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat qoidalariga rioya qilgan holda kafolatli barqaror rivojlanish nazariyasi asoslari va ilmiy tadqiqot xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, iqtisodiy adolat, adolatli jamiyat, inklyuziv jamiyat, ijtimoiy siyosat, iqtisodiy siyosat, barqarorlik, barqaror rivojlanish, adolat mezonlari va qoidalari.

Abstract: The article describes the foundations of the theory of guaranteed sustainable development and scientific research conclusions in accordance with the rules of socio-economic justice and socio-economic policy in New Uzbekistan.

Key words: social justice, economic justice, fair society, inclusive society, social policy, economic policy, stability, sustainable development, criteria and rules of justice.

Аннотация: В статье описаны основы теории гарантированного устойчивого развития и выводы научных исследований в соответствии с правилами социально-экономической справедливости и социально-экономической политики в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: социальная справедливость, экономическая справедливость, справедливое общество, инклюзивное общество, социальная политика, экономическая политика, стабильность, устойчивое развитие, критерии и правила справедливости.

KIRISH

Ma'lumki, adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va farovon hayot mezonlari, barcha eziguliklar manbai bo'lib kelgan, Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Kuch – adolatda" degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish, el-yurtning tinchligi va obodligini ta'minlashga erishgan.[1] Amir Temur davrida Adolat ramziga aylangan uch pallali tarozi o'lchovi, ya'ni jazo tayinlashda inson omilini hisobga olish, adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash bugungi kunda davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qayta-qayta kun tartibiga qo'yilayotgan masaladir.

Yangilangan Konstitutsiyamizning 14-moddasida: "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi", deb belgilab qo'yildi.[2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy adolat nazariyasi va amaliyoti masalalari Y.A.Abdullayev, Q.X.Abdurahmonov, H.P.Abulqosimov, D.Q.Axmedov, B.A.Begalov, A.V.Vahobov, E.F.Gadoyev, N.X.Jumayev, O.K.Iminov, T.S.Malikov, T.B.Matiboyev, E.G'.Nabiyev, Q.N.Nazarov, O.Olimjonov, N.X.Raximova, A.X.Saidov, S.S.Safoyev, R.A.Ubaydullayeva, A.J.Xolbekov, I.Saifnazarov, M.Sh.Sharifxo'jayev, A.O'lmasov, S.S.G'ulomov, N.H.Haydarov, R.R.Hasanov kabi olimlarning tadqiqotlaridan o'rganilgan. Ular qo'llagan ilmiy metodologik yondashuvlar va muammoga oid chiqargan ayrim xulosalar tadqiqot uchun nazariy-metodologik manba, ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

B. Aliev mamlakat rivojida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ahamiyati borasida: “Ijtimoiy-iqtisodiy adolat barqaror rivojlanishning asosiy omili bo‘lib, u jamiyatdagi tenglik va barqarorlikni ta‘minlaydi. Adolatning ta‘minlanishi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi”, – deb ta‘kidlab o‘tgan¹.

Bu borada H. Boboyev o‘z asarlarida “Ijtimoiy-iqtisodiy adolat davlatning rivojlanish strategiyasida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak, chunki u barqaror rivojlanishning kafolati sifatida xizmat qiladi” kabi fikr bildirgan².

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi xususiyatlarini o‘rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatda ijtimoiy adolat, eng avvalo, hayotiy ne‘matlarni taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Chunki adolat kishilar o‘rtasida boyliklarni taqsimlash, u yoki bu xatti-harakatlar uchun rag‘batlantirish yoki jazolash mezonini anglatadi. Fikrimizcha, adolatning asosiy shartlaridan biri hech bir kimsaga ziyon yetkazmaslik bo‘lsa, ikkinchisi kishilarga naf keltirishdir. Lekin bunda ijtimoiy adolat tushunchasining ma‘nosini faqat taqsimot tipidagi munosabatlar yoki taqsimot mexanizmi bilan chegaralash mumkin emas. Adolat taqdirlash va talab qilishning miqdoriy o‘lchovidir. Bizningcha, iqtisodiy jihatdagi “ijtimoiy adolat” kategoriyasi juda keng tushuncha bo‘lib, u takror ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini, ya‘ni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste‘molning hamma sohalarini, iqtisodiy erkinlik, bozor raqobati va mulkiy munosabatlardagi erkinlik, teng huquqlilik, iqtisodiy o‘rish, taraqqiyot, mutanosiblik, ekvivalentlik, muvozanat, samaradorlik, manfaatlar uyg‘unligi, iqtisodiy qadriyatlar, iqtisodiy-matematik madaniyat talablari va qoidalarini ham qamrab oladi.

Ijtimoiy adolatning boshlang‘ich asosiy qoida va mezonlari mulkiy munosabatlarga borib taqaladi. Chunki mulkchilik jamiyat iqtisodiy tizimining asosidir. Shu jihatdan ijtimoiy adolat umuminsoniy qadriyat va umumiqtisodiy kategoriya sifatida jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichidan boshlab, to hozirgi kungacha mulkchilik munosabatlarining rivojlanishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, takomillashib kelgan. Adolat haqidagi tasavvurlar va ommaviy-ilmiy qarashlar ham muayyan jamiyatdagi mulkchilik munosabatlari, ularning holati, rivojlanish darajasi va qonuniyatlariga mos bo‘lgan yoki shu munosabatlar darajasida talqin etilgan holda targ‘ib qilingan. Masalan, sobiq sovet davrida ijtimoiy mulkchilik amal qilayotgan mamlakatlarni adolatli va xususiy mulkchilik mavjud bo‘lgan davlatlarni ekspluatatsiyaga asoslangan adolatsiz jamiyat, deb ta‘riflangan bo‘lsa, hozirgi kunda mulkchilikning barcha shakllariga, jumladan, xususiy mulkchilikka ham bir xilda rivojlanish imkoniyati berilgan respublikamizda adolat qaror topayotganini ta‘kidlash joiz. Chunki ijtimoiy adolat mulkchilik munosabatlari bilan bog‘liq ekan, demak, mulkchilik munosabatlarini ro‘yobga chiqarish mexanizmidagi buzilish, albatta, ijtimoiy adolat qoidalarining buzilishiga ham olib keladi.

Garchi ijtimoiy adolatning ildizi mulkchilik munosabatlariga, ya‘ni jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasi va iqtisodiy munosabatlarga borib taqalsa-da, yaqin o‘tmishgacha unga umumiqtisodiy qadriyat va kategoriya sifatida yetarli e‘tibor berilmagan. Shuningdek, adolatni ma‘naviy-axloqiy yoki falsafiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy tushunchalar sifatida talqin qilgan qadimgi dunyo mutafakkirlari Arastu va Suqrot dan boshlab, buyuk bobokalonlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va hozirgacha bo‘lgan olimlarimizning ijodida uning iqtisodiy qirralari faqat umumiy tarzda, lekin chiroyli uyg‘unlashib ketganligini ko‘rish mumkin.

Ijtimoiy adolat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida jamiyatning barcha a‘zolariga o‘zini to‘la namoyon qila olishi va eng yuqori samaraga erishishi uchun teng imkoniyatlar va shart-sharoitlarning yaratilganligi hamda kafolatlanganligi darajasini bildiradi. Uning iqtisodiy asoslari manfaatlar va mulkchilik munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyatning adolatlilik darajasi aholining turmush tarzi va mehnat sharoitlari ko‘rsatkichlarida ifodalanadi va bu ko‘rsatkichlar o‘z navbatida jamiyatdagi ishlab chiqarish darajasiga bevosita aloqador.

Ijtimoiy adolatning asosiy iqtisodiy qoidasi inson va jamiyat (taraqqiyoti) manfaatlarining uyg‘unlashuviga erishish hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyatdagi moddiy va shaxsiy (intellektual) resurslardan oqilona hamda samarali foydalangan holda xalq farovonligini maksimal darajada ta‘minlashdan iborat.

1 Aliev B. Bozor munosabatlarining qaror topishi sharoitida mehnat jamoasi ijtimoiy funksiyalarining o‘zgarishi. – T.: Fan, 1992.

2 Boboyev H., Hasanov S. O‘zbekiston demokratik jamiyat qurish sari. – Toshkent: Adolat, 2001.



Ijtimoiy yo'naltirilgan – sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanib va mustahkamlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, iqtisodiy sohada, kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos ijtimoiy adolat qoidalari mavjud. Bular: iqtisodiy erkinlik va mehnat, ishbilarmonlik, mulkiga qarab farqlanadigan iqtisodiy subyektlarning daromadi, turmush darajasi va jamiyatdagi mavqeyi bo'yicha tabaqalanishdir. Bunda jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining ustuvorligi o'z-o'zidan ta'minlanadi.

Asosiy iqtisodiy qoidaning hosilasi sifatida ikkinchi, ya'ni erkin raqobat mexanizmining amal qilish qoidasi kelib chiqadi. Raqobat mexanizmining amal qilishi nuqtai nazaridan bozor munosabatlari sotsial darvinizm g'oyalari o'xshab ketadi. Ma'lumki, sotsial darvinizmga binoan insoniyat jamiyati taraqqiyotiga biologik qonunlar tatbiq qilinib, tabiiy tanlanish, yashash uchun kurash tamoyillari ijtimoiy hayotning belgilovchi omillari deb qaraladi va ijtimoiy tengsizlik tabiiy (odatiy) hol sifatida tan olinadi.

Bozor iqtisodiyoti shaxsiy manfaatlarining birlamchi ekanligi va ularning tarkibini chuqur anglash yo'li bilan kishilarning faolligini oshirish va jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini jadallashtirishning nazariy hamda amaliy jihatdan eng maqbul usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham o'tish davridagi keskin yo'nalishlar makiavelizm qoidasiga o'xshash umumiy taraqqiyot maqsadi bilan oqlanadigan vositalardir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oqlanadigan vosita deganda har qanday ixtiyoriy vosita emas, balki insonning mohiyati va turmush tarzi me'yorlariga mos keladiganlari nazarda tutiladi. Me'yor iborasi ham umumiy tushuncha bo'lib, u odatda adolat mezoni sifatida ifodalanadi. "Me'yor adolatdir" – deyilgan qadimdan. Shu bois, hamma vaqt, hamma joyda, hamma sohada me'yorni bilish va unga rioya qila olish adolat yo'lidir. Donolarning ta'biricha: hatto tejam, iqtisod qilish ham me'yorda bo'lishi kerak.

Demak, adolat barcha narsani o'z o'rniga qo'ya bilishdadir. Adolat me'yorning amaldagi isbotidir. Adolat yo'q joyda kishilar hayoti qadr-qimmatini ushlab turadigan hech nima qolmaydi.

Ijtimoiy adolatning yana bir mezoni turli darajadagi manfaatlarining uyg'unligi, ya'ni maqsadlar va xatti-harakatlar bilan jamiyat taraqqiyotining mushtarakligidir. Bu esa asosan jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tushunchalari iqtisodiyot nazariyasida hal qiluvchi masala hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi kunda bu tushuncha va masalalar barcha mamlakatlardagi hukumatning ham, siyosiy partiyalarning ham asosiy dasturlarida o'z ifodasini topgan. Chunki, har qanday jamiyatning ham asosiy maqsadi xalqning farovonligini oshirish va buning uchun esa yaxlit olingan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot masalalarini oqilona hal qilishdan iboratdir.

Iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim, markaziy masalalaridir.

Aholi ehtiyojlarining cheksizligi va jamiyatdagi resurslarning chegaralanganligi, shu mavjud resurslardan maksimum darajada samarali va jamiyatning har bir a'zosi uchun adolatli foydalanish vazifasini belgilaydi. Kishilarning ehtiyojlari esa xilma-xil va ichki ziddiyatli bo'lib, ularni mavjud chegaralangan resurslar doirasida adolatli qondirish o'zaro ziddiyatli holdir. Mana shu jihatdan har qanday jamiyatning asosiy vazifalaridan bo'lmish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash o'rtasida ziddiyat namoyon bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning asosini tashkil etadi va unga xizmat qiladi. Aholi farovonligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning pirovard maqsadidir. Iqtisodiy taraqqiyotning mahsuli va pirovard natijasi – jamiyatning butun boyligi va hayot faoliyatining turli-tumanligidir.

Iqtisodiy samaradorlikni va ijtimoiy adolatni ta'minlash turli jamiyatlarda turlicha yo'nalish va turli darajalarda amalga oshiriladi. Bunda har bir jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi, mavjud salohiyati, jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari va vaziyati asos bo'lib xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishning kafolati sifatida oqilona ijtimoiy-iqtisodiy siyosat (adolat) ustuvorliklari matritsasiga (quyidagi chizmada) e'tibor qaratilishini taklif qilamiz.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat (adolat) ustuvorliklari matritsasi (Adolat daraxtining hosildorligi holatlari)

+	Ustuvor ijtimoiy siyosat	Mo'tadil ijtimoiy-iqtisodiy siyosat	Ustuvor iqtisodiy siyosat
Ustuvor ijtimoiy siyosat	Iqtisodiy stimullar yo'qoladi va iqtisodiy tanazzulga olib keladi	Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishiladi	Jamiyatda siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka erishiladi
Mo'tadil ijtimoiy-iqtisodiy siyosat	Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikka va tinchlikka erishiladi	Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka va tinchlikka hamda optimum samaradorlik va nafililikning o'sishi tufayli barqaror rivojlanishga va farovonlikka erishiladi	Jamiyatda iqtisodiy barqarorlikka va iqtisodiy o'sishga erishiladi
Ustuvor iqtisodiy siyosat	Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishiladi	Jamiyatda siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka erishiladi	Jamiyatda vaqtinchalik yuqori iqtisodiy o'sishga erishiladi, lekin ma'naviy yutqazish turg'unlik yoki yemirilishga olib keladi

Shuningdek, "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" kitobining mualliflari Daron Ajemo'g'li va Jeyms A. Robinson ta'kidlaganidek, barqaror iqtisodiy o'sish uchun mulk daxlsizligini muhofaza qiladigan, raqobatda barcha uchun teng shart-sharoitlar yaratadigan, yangicha texnologiyalar va bilimlarga sarmoya qilishni rag'batlantiradigan adolatli inklyuziv institutlar bo'lishi kerak.[3]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-iqtisodiy adolat har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shartdir. Adolatni ta'minlash orqali jamiyatda tenglik, farovonlik, va ijtimoiy birdamlikka erishiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy adolat barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratadi va davlatning barqarorligiga zamin tayyorlaydi. Bunday adolatli tizimda resurslar va boyliklar adolatli taqsimlanadi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka va umuman jamiyatning uzoq muddatli farovonligiga xizmat qiladi. Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy adolat nafaqat bugungi kundagi muammolarni hal etish, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror rivojlanishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 440 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn]: rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 128 b.
3. Daron Ajemo'g'li, Jeyms A. Robinson. Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari. Toshkent: "Asaxiy books" MChJ, "Nihol" nashriyoti, 2023. 676 bet.
4. Aliev B. Bozor munosabatlarining qaror topishi sharoitida mehnat jamoasi ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi. – T.: Fan, 1992.
5. Boboyev H., Hasanov S. O'zbekiston demokratik jamiyat qurish sari. – Toshkent: Adolat, 2001.
6. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 1998.
7. Жўраев С. Фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт. – Тошкент: Академия, 2003.
8. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. – Тошкент: ТДЮИ, 2002.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

